



**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ\***

к договору (контракту) от 25.10.2022 г. № 214-2-41-ОВ/2022

между Вухоро Elektrotexloyiha MCHJ и Шофиркон туман Ободонлаштириш бошкармаси на общую сумму  
1700 000

Глава

110

Казначейский лицевой счёт

401722860062587045204118002

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4339000			
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь	1 700 000,00			1 700 000,00
Ноябрь				
Декабрь				
<b>Всего за год</b>	<b>1 700 000,00</b>			<b>1 700 000,00</b>

Всего 1700000 сум

Бир миллион етти юз минг сўм 00 тийин

сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 510000 сум или 30.00%\*\*\* от общей суммы договора подлежат предоплате в Октябрь мес. 2022 г.

(\*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2-х экземплярах;

(\*\*) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(\*\*\*) — Месячный \_\_\_\_\_% , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до \_\_\_\_\_ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



(подпись)

Якубов Халим Махмудович

Ф.И.О.

Главный бухгалтер заказчика

(подпись)

Аъзамов Исок Камолович

Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения

(подпись)

Получил работник заказчика

(подпись)

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.

# HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI

25«10»2022 yil.

214-2-41-OB/2022-son

“BUXORO ELEKTROTEXLOYIHA” MChJ (keyingi o‘rinlarda “Ijrochi” deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi rahbari J.Djo‘rayev bir tomondan, va Shofirkon tuman Obodonlantirish boshqarmasi (kiyingi o‘rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi rahbari H.Yakubov, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq "Ijrochi", "Buyurtmachi" ning rasmiy murojaatiga asosan, Shofirkon tuman Guliston MFY Asbobon va Yobusxo'r qishloqlari maktabi oldida 300 metrli piyodalar yo'lakchasini qurish ishlari loyiha va smeta hujjatlarini tayyorlab berilishi borasidagi xizmatlar ko'rsatishni, buyurtmachi esa bu xizmatlar uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

## II. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Qonunchilikda belgilangan tartibda mazkur turdagi shartnomalarni tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni so'rash va olish;

Mazkur turdagi shartnomalarni tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalarini so'rash va olish, mutaxassislar bilan maslahatlashish;

davlat organlari va boshqa organlarga, mansabdor shaxslarga iltimosnomalar bilan murojaat etish hamda shikoyatlar berish va ulardan asoslantirilgan yozma javoblar olish;

2.4. boshqa tarafning iqtisodiy ahvoli, nufuzi va ishchanlik jihatlari xususidagi ma'lumotlarni to'plash;

2.5. xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunda nazarda tutilgan vositalari va usullarini qo'llash.

2.6. Shartnoma taraflari qonunchilikda va shartnomada nazarda tutilgan o'zga huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

2.7. Shartnoma taraflari xo'jalik shartnomalari to'g'risidagi qonunchilikning talablariga rioya etishlari;

Mazkur turdagi shartnomalarning o'z vaqtida tuzilishini ta'minlash;

2.9. tuzilgan shartnomalar bo'yicha zimmalariga olingan majburiyatlarni o'z vaqtida va tegishli tartibda bajarishlari shart.

2.10. Shartnoma taraflari qonunchilikda va shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladi.

## 3. XIZMAT HAQI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun "Buyurtmachi" shartnomaviy baho to'g'risidagi bayonnomaga muvofiq 1700 000 ( Bir million yetti yuz ming) so'm, shu jumladan oldindan to'lov tartibida

mazkur summaning **30 foizini**, ya'ni **510 000 ( Besh yuz o'n ming) so'm miqdorida to'laydi**. Qolgan **70 foizi ya'ni 1 190 000 (Bir million bir yuz to'qson ming) so'mini** esa xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilgandan so'ng 30 bank ish kuni ichida amalga oshiriladi.

3.2.To'lov **pul ko'chirish yo'li bilan** amalga oshiriladi.

3.3.Ijrochining o'zi aybdor bo'lmagani holda xizmatni ko'rsata olmagan taqdirda, Buyurtmachi Ijrochiga uning xarajatlarini to'lashi shart, bunda Ijrochining xizmatlar ko'rsatishdan ozod qilinishi munosabati bilan olgan yoki olishi mumkin bo'lgan foydasi chegirib qolinadi.

3.4.Buyurtmachining aybi bilan xizmat ko'rsatish mumkin bo'lmay qolgan taqdirda, xizmatlar bahosi butunlay to'lanishi kerak.

#### **4. XIZMATLARNI TOPSHIRISH-QABUL QILISH TARTIBI**

4.1.Ijrochi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan xizmatlarni shaxsan o'zi ko'rsatishi shart.

4.2.Xizmatlar ko'rsatilgandan so'ng Ijrochi Buyurtmachiga ko'rsatilgan xizmatlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini taqdim etadi va unga hisobot hujjatlarini ilova qiladi.

4.3.Xizmat natijalaridan qoniqmagan Buyurtmachi dalolatnomani olgan paytdan boshlab 10 kun ichida Ijrochiga xizmatlarni qabul qilishdan bosh tortishi mumkin.

4.4.Buyurtmachining radnomasi asosli deb topilgan taqdirda, taraflar ikki tomonlama dalolatnoma tuzadilar va unda qo'shimcha ko'rsatilishi lozim bo'lgan xizmatlar ro'yxati va ularni bajarish yoki bajarishni to'xtatish muddatlarini ko'rsatadilar.

4.5.Xizmatlarni ko'rsatish jarayonida ularni davom ettirish imkoniyati yo'qligi yoki maqsadga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda, Buyurtmachi bu haqda Ijrochini xabardor qilishi va u bilan birga zaruriy choralarni ko'rish shart.

4.6. Xizmatlarni ko'rsatish muddati 2022-yil 5-noyabrgacha amalga oshiriladi.

#### **5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI, NIZOLARNI HAL QILISH**

5.1.Taraflar majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida kelib chiqadigan nizolar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi subektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi» to'g'risidagi Qonuni va ushbu shartnomaga asosan hal qilinadi.

5.2.Xizmalar ko'rsatish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, ijrochi buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.3. Yetkazib berilgan ishlar, xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi ijrochiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

5.4. Agar bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi ishlar va xizmatlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, ijrochidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan ishlar va xizmatlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar ishlar va xizmatlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan ishlar, xizmatlar yetkazib berganlik uchun jarima ijrochidqn akseptsiz tartibda undirib olinadi. Jarimani undirish to'g'risidagi

to'lov talabnomasi bank muassasasiga ishlar va xizmatlarning sifati, assortimenti va navi lozim darajada emasligi to'g'risidagi dalolatnoma tuzilgandan keyin o'n kun ichida taqdim etiladi. Jarimani undirish to'g'risidagi to'lov talabnomasi belgilangan o'n kunlik muddatni buzgan holda taqdim etilgan hollarda, jarimani undirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5.5. Taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro kelishuv asosida, agar taraflar kelisha olmasalar nizolar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar

faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asosan iqtisodiy sud tartibida hal qilinadi.

## **6. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR.**

6.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni taraflardan biri o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

6.2. Agar shartnoma bo'yicha bir taraf boshqa tarafning axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan hatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, qonunchilikda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor qilishi shart.

6.3. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabr sanasidagi PF-6313-son farmonidan kelib chiqib ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi.

## **7. FORS-MAJOR HOLATLARI**

7.1 Tomonlarga bog'liq bo'lmagan, oldindan oldini olish mumkin bo'lmagan holatlar shu jumladan e'lon qilingan fuqarolik urushi, epidimiyalar, blokadalar, embargolar, zilzilalar, toshqinlar, yong'inlar, shuningdek davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmonlar, tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan holatda majburiyatlarni bajarmaganligi uchun tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi.

7.2. Taraflar o'zlariga bog'liq bo'lmagan holatlarda majburiyatlarni bajara olmasalar, ushbu holat yuzaga kelgan vaqtdan 3 kun ichida boshqa tarafni yozma ravishda ogohlantirishi kerak.

## **8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, O'ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI**

8.1. O'zbekiston Respublikasi "Budjet kodeksi"ning 122-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan budjet tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budjeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng kuchga kiradi hamda **2022 yil 31 dekabrgacha amalda bo'ladi.**

8.2. Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

8.3.Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasini amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo'l qo'yiladi.

8.4.Buyurtmachi xizmatlarning belgilangan bahosini to'liq to'lash sharti bilan ushbu shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli, shartnoma Ijrochining aybli harakatlari tufayli bekor qilingan hollar bundan mustasno.

8.5. Ijrochi ushbu shartnoma bekor qilinishi tufayli buyurtmachiga yetkazilgan zararining hammasini to'lash sharti bilan ushbu shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli, shartnoma Buyurtmachining aybi bilan bekor qilingan hollar bundan mustasno.

8.6.Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan taraf ikkinchi tarafga 10 kun oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.

8.7. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

## 9.TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI:

### «Ijrochi»

#### "Buxoro Elektrotexloyiha" MCHJ

(Tovar yetkazib beruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchining nomi)

Manzil: Buxoro shahar MFY S.Raximov ko'chasi 6-uy

Tel./faks +99891 405 00 13

h/v 20208000305125320001

Bank nomi Uzsanoatqurilishbank Toshkent ATB bosh ofisi

MFO 00440

OKONX 71120

STIR 306732650

### «Buyurtmachi»

#### Shofirkon t. Obodonlashtirish boshqarmasi

(budjetdan mablag' oluvchi tashkilotning nomi)

Manzil:Shofirkon sh Mirzokul MFY

Tel./faks 50-2-33-39

sh/h\*401722860062587045204118002

budjetdan mablag' oluvchi STIR 201114223

OKONX 90211

G'aznachilik bo'linmasi nomi: Shofirkon tuman

bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi

G'azna h/v: 23402000300100001010

Bankning nomi: Toshkent sh. Markaziy bank

MFO: 00014

G'aznachilik bo'linmasi STIRi: 201122919


Rahbar

J.Djo'rayev

Rahbar

H.Yakubov



	Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	XALIM YAKUBOV MAXMUDOVICH
	Imzolangan sana	25.10.2022 14:46
	Hujjat kodi	EG1780826122
	Hulosa kodi	ZO5183275546

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

ZO5183275546

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: Shofirkon tuman Obodonlantirish boshqarmasi va “BUXORO ELEKTROTEXLOYIHA” MChJ o'rtasida tuzilgan 1700 000 (Bir million yetti yuz ming) so‘mlik Shofirkon tuman Guliston MFY Asbobon va Yobusxo'r qishloqlari maktabi oldida 300 metrli piyodalar yo'lakchasini qurish ishlari loyiha va smeta hujjatlarini tayyorlab berilishi borasidagi xizmatlar ko'rsatish shartnomasi tuzish haqida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Shofirkon tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 20.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Shofirkon tumani  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**B.V.SAIDOV**

25.10.2022